



XORAZM ADABIY MUHITIDA DEVON TUZISH AN’ANASI

*Islomova Barno Umurovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Sharq she’riyatida she’riy to‘plam – devon tuzish mashhur bo‘lgan. Devonda biror shoir she’rlari qofiya yoki radifga ko‘ra arab alifbosi tartibida (qofiyalanib keluvchi so‘zlearning oxirgi harfi asosida) joylashtiriladi. Sharqda devon tuzish shoirning yetuklik belgisi hisoblanadi, shuning uchun ham barcha she’r yozgan shoirlar devon tarib qilavermagan. Shoirning qay darajada iste’dodli ekanligini ham uning devonidan bilib olishgan, unga baho berishgan. Maqolada Xorazm adabiy muhitida devon tartib qilgan so‘z san’ati namoyondalari haqida gap yuritamiz.

Kalit so‘zlar: she’riy to‘plam, devon, devon tuzish an’anasi, so‘z san’ati, adabiy muhit.

**THE TRADITION OF COMPILING DIWAN IN THE LITERARY
ENVIRONMENT OF KHOREZM**

Abstract: In Eastern poetry, the compilation of a poetic collection, or diwan, was a well-known tradition. In a diwan, the poems of a poet are arranged according to rhyme or refrain in the order of the Arabic alphabet (based on the last letter of the rhyming words). In the East, compiling a diwan is considered a sign of a poet's maturity, which is why not all poets compiled diwans. The poet's level of talent was also often judged by their diwan. This article discusses the representatives of the art of words who compiled diwans in the literary environment of Khorezm.

Keywords: poetic collection, diwan, tradition of compiling diwan, art of words, literary environment.

**ТРАДИЦИЯ СОСТАВЛЕНИЯ ДИВАНА В ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ
ХОРЕЗМА**

Аннотация: В восточной поэзии составление поэтического сборника, или дивана, было широко распространенной традицией. В диване стихи поэта размещаются в порядке арабского алфавита в зависимости от рифмы или радфа (по последней букве рифмующихся слов). На Востоке составление дивана считалось признаком зрелости поэта, поэтому не все поэты составляли диван. Уровень таланта поэта также часто оценивался по его дивану. В статье обсуждаются представители словесного искусства, которые составляли диваны в литературной среде Хорезма.

Ключевые слова: поэтический сборник, диван, традиция составления дивана, искусство слова, литературная среда.

Kirish. Xorazmda qadim- qadimdan ilm-fan, adabiyot, madaniyat juda rivojlangan. Buning isbotini biz dunyoga mashhur qomusiy olimlarimiz misolida ham ko‘rishimiz mungkin. O‘zbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan ijodkorlarning ko‘pchiligi ham Xiva adabiy muhitida ijod qilishgan. “Jahonga dong‘i ketgan Xorazmda ulug‘lar juda ko‘p. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, sultoniy ulamo Mavlono Bahovuddin Valad, Shayx Najmuddin Kubro, Zamaxshariy, Nosiriddin Rabg‘uziy, hazrati Pahlavon Mahmud, Hofiz Xorazmiy, Kiromiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Hojoxon, Komiljon..” kabilardir. Ularning ayrimlari haqida aytib o‘tmoqchimiz..

Mavzuga oid adbaiyotlarning tahlili. “Ravnaq XVIII asr Xorazmdagi ozbek adabiyotining iste’dodli namoyandalaridan biri. Shoir she’rlaridan namunalar Xorazmda tuzilgan “Bayozi mutaffariqa”, “Bayozi muxammasot” kabi majmulariga kiritilgan. Shermuhammad Munis o‘zining “Firdavs ul-iqbol” tarixiy-badiiy xronikasida Ravnaqni o‘z davrining mavlonolaridan biri sifatida ta’riflab, uning Xorazm hukmdori Muhammad Amin Inoq qizi vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasidan parchalar keltiradi. Bizning davrimizga kelib esa, uning 258 g‘azal, 22 muxammas, 5 qasida va bir mustazodni o‘z ichiga olgan, umumiy hajmi 5000 misradan ko‘proq she’riy devoni topilib, akademik V.Abdullayev va O.Rasulova tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Shu devondagi she’rlardan namunalar “O‘zbek adabiyoti” 5 tomlik majmuasining 1-kitobida (1966 yil, 163-200- begtlar) chop etildi. “Ravnaq o‘z ijodida Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab yaratuvchiligidan bahra oldi, o‘z davri voqeа-hodisalari aks-sadosi bo‘la oladigan asarlar yaratdi. Uning devonidagi 22 muxammasning 14 tasi Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan tazmin muxammaslardir...”. Pahlavonquli Ravnaqning ko‘pgina g‘azallari orqali uning Alisher Navoiyning izidan borganligini ko‘ramiz. Bundan tashqari devonida Xorazm hamda Buxoro hukmdorlariga bag‘ishlab yozilgan maqtov qasidalar ham bor.

Tahlil va natijalar. Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy kabi eng mashhur ijodkorlarning umr kechirishi, ijod etish davr xonliklar davriga to‘g‘ri keladi. Shermuhammad Munis Xorazmiy mashhur shoir, davlar arbobi, muarrix, tarjimon, xattot sifatida tanildi. Uning adabiy merosi “Devoni Munis” hamda “Munis ul-shshoq” (“Oshiqlar do‘sti”) devonlariga jamlangan. “Munis ul- ushshoq” devoni g‘azal, muxammas, qasida, qit‘a, ruboiy va boshqa janrlardan iborat bo‘lib, unda shoirning 20000 dan ziyod ijod namunalari o‘rin olgan. Shoirning bu devonini kotiblar qayta-qayta ko‘chirishgan, 1880-yilda Xiva toshbosmasida nashr etilgan. “Shermuhammad Munis Xorazmiy o‘z zamonasining ilg‘or kishisi, olim va shoir sifatida ilm-fan, adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Poeziyada u o‘zbek va fors-tojik adabiyotining klassiklariga ergashgan, ularning eng yaxshi an’analarini rivojlantirgan shoirdir. Munis o‘zining “manga” radifli g‘azalida o‘n uch shoir- G.Nizomiy, A.Jomiy, X. Dehlaviy, H.Sheroziy, F.Attor, Firdavsiy, Ansoriy, Hoqoniy, Anvari, Iroqiy,

Bedil, Kiromiy va Navoiylarni faxr bilan tilga oladi va ularning har birining o‘ziga ko‘rsatgan ta’siri haqida to‘lqinlanib yozadi. Haqiqatan ham, shoirning “Munis ul-ushshoq” devoniga kirgan g‘azallar, mustazodlar, muxammaslar, musadddaslar, ruboil va tuyuqlarni diqqat bilan o‘qir ekanmiz, dardli Munis fig‘onlarining Fuzuliy, Andalib nolalariga hamohangligini sezamiz. Navoiy she’riyati gulshanining nafosati va jozibasini tuyganday bo‘lamiz. Navoiyga Munis alohida mehr va e’tiqod bilan qaragan. Munisning o‘zi buni e’tirof etib, deydi:

Bas erur senga aylab hamisha tarbiyat,

Menki Munisman, meni qilmoq Navoiy dastgir”.

“Xiva adabiy muhiti Xiva xonligi saroyida shakllandi, taraqqiy topdi. Uning gullab-yashnagan davri XIX asrga to‘g‘ri keladi. Bu asrda Xorazmda madaniyatning turli yo‘nalishlari rivojlana boshlaydi. Musiqa va musiqashunoslik takomili, teatr sa’atining ko‘rinishlari bazm, sayl, masxarabozlik, marosim shakllarida ko‘zga tashlanadi...”. Muhammad Rahimxon II davridagi adabiy muhiti haqida ma’lumot beruvchi Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuar” tazkirasi, Bayoniyning “Haft shahzoda” majmuasi, Hasanmurod Lafassiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari” tazkiralari muhimdir. Undan tashqari, Bobojon Tarroh Azizov -Xodimning XIX asr oxiri XX asr boshlarida Muhammad Rahimxon soniy davrida yashagan shoirlar haqida esdalik asar “Xorazm navozandalari” asari orqali ham ma’lumot olsak bo‘ladi. Mualluf bu adabiy muhit haqida quyidagicha yozadi: “XIX asar Xorazm adabiy va madaniy muhiti osmonida Muhammad Rahimxoni soniy - Feruz qamar yang‘lig“ porlab turdikim, buning samarasini o‘laroq uning atrofiga iste’dodli shoirlar, bastakor-u san’atkorlar yulduzlar yanglig‘ yig‘ilib, g‘azallar aytdilar, devonlar bitdilar, kuy va qo‘shiqlar ijod etdilar. Zero, ijod ahli mehr-u muruvvatga mushtoq bir toifa. Ular mehr ko‘rgan, qadr topgan joyda ijod bulog‘i to‘xtovsiz qaynayveradi, ma’naviyat yuksalaveradi, milliy iftixor chechak ochaveradi...” “Xorazm navozandalari”da berilgan shoirlarning ko‘pchiligi bugunga qadar kitobxonlarga ma’lum yoki noma’lum bo‘lgan ijodkordir. Muallif shoirlar haqida ma’lumot berar ekan, ularning devon tartib qilganiga ham alohida e’tibor qaratadi. Muhammad Rahimxon taxtni boshqarish bilan birga Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur singari badiiy ijod bilan shug‘ullangan va mashhurlikka erishgan. “Xorazm navozandalari” asarida uning devon tuzgani haqida quyidagicha ma’lumotni muallif keltirib o‘tadi: “Shoir Muhammad Rahimxon ikkinchi “Feruz” nomi bilan devon tartib berg‘on. Olti yarim maqom ichinda “Feruz” degan maqom xalq orasida mashhur...” She’rlari, asosan, ishq- muhabbat mavzusida bo‘lgan Feruz o‘zining lirik asarlarini “Devoni Feruz” ga jamlaydi. G‘azallarining ko‘pchiligi o‘z zamonasida kuyga solinib kuylangan edi.

“Feruz she’riyatida ishq mavzusi chuqur badiiy tahlil etilgan. Boshqa barcha mavzular ishqiy asarlar doirasida Feruzona o‘ziga xos talqinini topgan. Feruz hayoti hamda faoliyatining dunyo mulki va muammolari bilan chambarchas bog‘liqligi uning bir qadar dunyoviy shaxs bo‘lishini taqozo etadi. Darvoqe, uning dunyoqarashida... hayotsevarlik ruhi ustuvor. Ammo shu bilan birga, Feruz bag‘oyat taqvodor inson edi. U o‘ziga nasib etgan

dunyoning mulki, mammalakati, ne’matlari, iste’dod qudrati – bari-barini Ollohnning inoyati, xohishi, irodasi deb tushunardi. Ana shundan kelib chiqib, Feruz g‘azaliyotida ilohiy qudratga muhabbat tuyg‘ulari barq uradi...”.

Mumtoz she’riyatning deyarli barcha janrlarida ijod qilgan, Navoiy, Munis, an’analarini davom ettirgan “Devoni Bayoniy” to‘plamini tuzgan Muhammad Yusufbek ham o‘z davrida ma’lum-u mashhur edi. “Xorazm navozandalari” asarida u haqida shunday ma’lumotlar berilgan: “Shoirning ismi Muhammad Yusufbek, otasining ismi Bobobek bo‘g‘on. Uning adabiy nomi Bayoniy edi. Bu nomni o‘zi tanlab, Muhammad Rahimxon ikkinchiga taqdim qilg‘on vaqtinda, xon buni qabul qilg‘on. Shoir Bayoniy devon tartib berg‘on. Bu devon uning vafotidan so‘ng kimning qo‘lida qolq‘oni ma’lum emas... ”.

Xorazm adabiy muhiti haqida gap ketganda, albatta, Ogahiyning nomini tilga olmaslikning ham iloji yo‘q. Muhammadrizo Ogahiy ota-onasining vafotidan so‘ng qarindoshi - mashhur tarixchi va shoir Munis Xorazmiy qo‘lida tarbiyalanadi. Madrasalarda ta’lim oladi, arab va fors tillarini, sharq xalqlarining ulug‘ shoirlari – Navoiy, Fuzuliy, Bedilning ijodini mukammal o‘rgangan. “Ogahiyning o‘z zamonasining mumtoz lirik shoiri sifatida xilma-xil mavzu va janrlardagi she’rlari 1852-yil tartib berilgan “Ta’viz ul- oshiqin” devonida jamlangan. Agar biz Ogahiyning 1874-yilgacha hayot bo‘lganligi hamda saroydagi miroblik xizmatidan forig‘ bo‘lib, asosan ijodiy ish bilan shug‘ullanganligini e’tiborga olsak, shoir 20 yillar davomida yana qanchadan qancha lirik she’rlar yozganligi, binobarin, Navoiydan keying o‘zbek adabiyotida eng sermahsul lirik shoir sifatida namoyon bo‘lganiga ishonch hosil qila olamiz. “Ta’viz ul- oshiqin” qo‘lyozmalari 1882-1905- yillar litografik usulda bosmadan chiqarilgan... ”. Devon an’anaviy tartibda tuzilgan bo‘lib, jami 18000 misradan iborat. Devonda “Ash’ori forsiy” nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she’ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundarijasi markazida ishq turadi. Ogahiy o‘z devoniga nom berilishda ham ana shu “ishq”ni e’tiborga olgan.

“Ogahiy devon tartib berish va uni nomlashda ham Shermuhammad Munis yo‘lidan bordi. Munis va Ogahiy oralaridagi ustod-u shogirdlik ko‘p qirralidir. Ularning munosabatlari tog‘a-jiyanlikdan, oilaviy yaqinlikdan ijodiy yaqinlik tomon o‘sib borgan. Munis va Ogahiy adabiy merosiga nazar tashlasak, dastavval, ularning devonlari orasida o‘xshashlik e’tiborimizni o‘ziga tortadi. Munis ijodidan Navoiyona tartibda devon tuzish va uni maxsus nomlash an’anasining ikki umri boshlangan bo‘lsa, Ogahiy “Ta’viz ul- oshiqin” devonini tuzib, bu an’anani yana yuksak pog‘onaga ko‘taradi. Ogahiyning parokanda va tarqoq holdagi lirik asarlari shoh va shoir, Ogahiyning muxlisi Muhammad Rahim Feruz taklifi bilan devon holiga keltirilgan. Ogahiy o‘z lirik she’rlarining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan tumordek doim hamroh bo‘lishini, ishq ahlini dard-alamlardan xalos qiluvchi fazilatlarga ega bo‘lishini istadi va devonini “Ta’viz ul -oshiqin” (“Oshiqlar tumor”) deb atadi. Devondagi she’rlarning umumiy adadi 600 ga yaqin, shulardan 500 ga yaqini g‘azallardir...”.

Muhammad Rahimxon soniy- Feruz zamonasida unung mirzaboshisi lavozimlarida ishlagan, sharq mumtoz musiqasi, xususan, maqomchilik an’analarini rivojlantirishga

homiylik qilgan, o‘zbek kuylarini yozib olish uchun “Tanbur chizig‘i” deb ataluvchi nota tizimini joriy etgan Komil Xorazmiy ham lirik shoир bo‘lgan va devon tuzgan. Uning devonida 8000 misradan ortiq she‘r bo‘lib, ular g‘azal, murabba, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, qasida, muammo kabi janrlar o‘rin olgan. Uning she’rlarida chin insoniy fazilatlar ulug‘langan, jaholat qoralangan, ishq-muhabbat tarannum etilgan.

Muhammad Rahimxon soniy Avaz O‘tarning iste’dodiga yuqori baho berib uni saroyga taklif qilgan. Tabibiyni unga ustoz qilib tayin etadi. Shoирning 2 ta devoni yetib kelgan. “Saodat ul-iqbol”, “Devoni Avaz” devonlarining qo‘lyozma nusxalari O‘z FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida 942, 7102, 3451 raqamlari bilan saqlanadi.

Tabibiyning “Majmuayı si shuaroyi payravi Feruzshohiy” hamda “Muxammasoti majmuat ush shuaroyi Feruzshohiy ” tazkiralarda ham Xorazm adabiy muhitining assosiy voqealari tasvirlangan. Bu ikkala tazkirada ham shoirlar haqida ma’lumot berilganda, ularning devon tartib qilganliklariga alohida e’tibor qaratilgan.

Muhammad Rahimxon soniy- Feruz davrida yashab, ijod etgan, lekin hozirgi kunda ularning ijodlari to‘liq o‘rganilmagan shoirlar ko‘p. Shulardan biri- Muhammad Yusuf oxund Doiydir. Doiyning devon tuzganligi bir necha manbalar asosida ma’lum bo‘ldi. Filologiya fanlari nomzodi E.Ibrohimova shoирning ijodini o‘rganadi, tahlil qiladi hamda 1975-yilda “Xalqparvar shoир” risolasini yozadi. Bu risolada olima E.Ibrohimova Doiy hayoti va ijodi haqida turli tazkiralar asosida ma’lumotlar beradi, devonidagi ayrim she’rlarining badiiy tahlilini keltiradi. Olima Surayyo Do‘sstova esa Hasanmurod Lafassiyning “Tazkirayi shuar” asarini ilmiy tahlil qilar ekan, “Tazkirayi shuar”da Doiy hayoti va ijodi” nomli maqolasida shoир haqida quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Hasanmurod Lafassiyning “Tazkirayi shuar” asari Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan oltmishta yaqin shoirlar haqida ma’lumot berar ekan, bizga noma’lum bo‘lgan, biroq nazmda barakali ijod qilgan ijodkorlar bilan ham tanishtiradi. Shunday insonlardan biri Yusuf hoji oxund – Doiydir.... Maqolada Lafassiy tazkirasidagi Doiy haqidagi ma’lumotlar to‘liq tahlil qilingan, hamda o‘z zamonasining hassos shoiri, o‘tkir so‘z san’atkori bo‘lgan Muhammad Yusuf hoji Feruz Muhammad Rahimxon farmoyishiga muvofiq Doiy taxallusida bir devon tartib qilganligi haqida asarda berilganligini aytib o‘tgan. “O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Sharq qo‘lyozmalar markazidagi 906, 908, 6676, 6677 raqamli qo‘lyozmalarga Doiyning ham devoni kiritilgan. Bu devonlarda shoирning 300 dan ortiq g‘azal, muxammas, musaddas, mustahzod, musamman, qasida kabi janrlardagi she’rlari o‘rin olgan. Shoир devonining qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lsa-da ammo u matnshunoslik nuqtayi nazaridan hali hanuz to‘liq o‘rganilmagan va tadqiq qilinmagan.

Xorazm adabiy muhitida ijod qilib, devon tartib bergen, o‘zlarining lirik asarlari bilan haligacha o‘quvchilarini yo‘qotmagan bunday noyob so‘z ustalari anchani tashkil etadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, hozirgi kungacha ham ijodlari to‘liq o‘rganilmagan shoirlar, matnshunoslik nuqtayi nazaridan mukammal tahlil qilimadan devonlar mavjud. Bularni

o‘rganish, tahlil qilish esa matnshunoslikning, biz tadqiqotchilarning oldimizdagi asosiy vazifalardandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент-2009. (160 б).
2. Бобожон Тарроҳ Азизов. Хоразм навозандалари. Тошкент-1994.(3 б, 116, 40 б).
3. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул, Нусратулло Жумахўжа. Феруз: Шоҳ ва шоир қисмати. Тошкент-1995. (3 б ,47 б).
4. Do‘stova Surayyo. “Ilm sarchashmalari” jurnali, 2017-10. 34-b.
5. Солаева Б. Навоий ва Хоразм шоирлари. Урганч- 1993. (13 б).
6. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent-2006. (92 b, 237 b, 238 b).